

DIDAKTIKANING PREDMETI VA UNING ASOSIY VAZIFALARI

Shokirova Surayyo Zokirxon qizi
ATMU Defektologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada didaktikaning predmeti va uning asosiy vazifalari haqida ma'lumot beriladi. Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi ishlab chiqadigan tarmog'idir. Induktiv va deduktiv, tug'ma sog'lom fikrlash.

Kalit so'zlar: Didaktika, ta'lim tarbiya uzluksiz kamol topishi, miqdor va sifat hissiy va oqilona bilish, induktiv va deduktiv, astronomiya, axloqiy va estetik tarbiyalash.

Didaktikaning predmeti ta'lim tarbiya muassasasi sharoitida muallimlarning rahbarligi ostida amalga oshiriladigan o'quv jarayonidir. Didaktika ana shu jarayonlarning qonuniyatlari tadbiiq qilinadi, har hil tipdagi ta'lim tarbiya muassasalarda u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari o'qitish vositalari va metodlarning samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir.

Didaktika yunoncha "didaktikos" so'zdan kelib chiqqan bo'lib o'qitish, o'rganish manosi bildiradi. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy Kindiy Forobiy Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutaffakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo'lsalar, Amos Komeniskiy Shveysariyalik pedagog I.G. Pertalassi nemis pedagog A. Disterverglar Yevropada didaktikaning rivojlanishida katta hissa qo'shdilar.

Didaktika terminini qadimgi Gretsiyada Afina va Sparta shaharlarda eramizdan avvalgi IV-V asrda paydo bo'lgan. Keyinchalik Xitoy Misr va Markaziy Osiyo davlatlarida rivoj topgan.

Bu so'z 1613-yili Germaniyada nemis pedagogi Volfgang Rathe (1571-1635) tomonidan kiritilgan.

Bu tushunchani shunga o'xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komeniskiy (1592-1670) "Buyuk didaktika" nomli mashhur asarida tilga olindi. Lekin Komeniskiy didaktika bu faqat ta'limgina emas balki tarbiyalash ham deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmalilik ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf dars tizimi borasida so'z yuritadi.

Didaktika	
Umumiy	Xususiy didaktika
Yani o'qitish umumiy qonuniyatlarni o'rganadi.	Yani bir fanni o'qitish o'ziga xos xususiyatlarni o'rganadigan tarmog'i hisoblanadi.
Ana shu o'rganishi asosida o'qitish	Fonda Xususiy didaktika metodika ham

jarayonidan yangi yangi qirralari ochiladi va amaliyotga tadbiq etiladi.	deb yuritiladi.
Masalan EHM yoki ta'limning texnika vositalari yordamida o'quvchilarning bilish qobiliyati o'stiriladi.	Masalan ona tili o'qitish metodikasi, ximiya o'qitish metodikasi, boshlang'ich ta'lim metodikasi singarilar.
Yuqoridagi o'qitish sohasida yutuqlar umumiy didaktikaning rivojlanib borayotganligi ko'rsatadi.	

Umumiy didaktika bilan Xususiy didaktikalar o'zaro uzviy aloqadorlikda bog'liqlikda ish olib boradi. Ular bir birlarining rivojlanishiga tasir ko'rsatadi va yagona maqsadini Yani barkamol insonni shakllantirish vazifasini amalga oshiradi. Xususiy didaktika rivojlanib qo'lga kiritgan yutuqlari umumiy didaktikaning hamda xususiy didaktikaning vazifalarni Hal qilishga yo'naltiradi yoki aksincha shuning uchun ular o'zaro hamkorlikda aloqadorlikda bir -biriga tayangan holda ish turadi.

XX asrdan boshlab didaktika zamonaviy soha sifatida shakllana boshladi. Jumladan pedagogika psixologiya sohasida yangi yo'nalishlar o'qitish ilg'or pedagogik texnologiya asosidagi o'qitish usullari ko'lam rivojlandi. Yangi pedagogik texnologiya asosida o'qituvchilar faoliyati shakllanmoqda shuningdek masofaviy ta'lim axborot texnologiyalasi yordamida dars berish hozirgi zamonaviy o'qituvchilarning faoliyatida ko'rilmogda .

Bilim va malakalarni tarkib topishi naqadar zarur bo'lsada hozirgi didaktika ana shu soha bilangina chegaralanib qola olmaydi.

Endilikda o'quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar beradigan o'qitish jarayonining ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqish zarurati tug'iladi. O'quvchilarning kamol topishi ta'lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplari malum natijalarni beradi. Didaktika tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari ko'riladi ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillikni tashabbuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarni tarbiyalash tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Rahmonqulov "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Toshkent -2010
2. R.M.Po'latova. "Maxsus pedagogika " Toshkent -2005
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova "Umumiy pedagogika" Toshkent -2018.